



MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBIDA SOLIQ SOLINADIGAN DAROMADLAR O'RTASIDAGI FARQLAR

Nurnazarov Dilshod Rashidovich

BuxDU, "Buxgalteriya hisobi"

yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Published: 30th October 2025

KEYWORDS

Foyda, sof foyda,
amortizatsiya, soliq bazasi,
chegirilmaydigan xarajatlar,
soliq davri.

ABSTRACT

Ushbu maqola buxgalteriya hisobida moliyaviy va soliq hisobida soliq solinadigan daromadlar o'rtasidagi farqlar tushuntiriladi. Soliq kodeksining 317-moddasi orqali misollar keltirib soliq solish bazasida moliyaviy hisobot foydasi bilan kelib chiqadigan tafovudlar yoritib beriladi.

Hisobchilar tomonidan aksariyat hollarda foyda solig'ini to'lashda Soliq organlari ma'lumotlari bilan solishtirish chog'ida tafovudlar kelib chiqishi bilan bog'liq muammolarga duch kelinadi. Bunday farqlar turli imtiyozga ega bo'lgan daromadlar yoki Soliq kodeksiga asosan tan olinmaydigan xarajatlar evaziga kelib chiqadi.

Soliq solinadigan foydadagi farqlarni doimiy farqlar va vaqtincha farqlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Doimiy farqlar hech qachon soliq hisobotida aks ettirilmaydi, ya'ni ular moliyaviy foydada bor, lekin soliqa tortilmaydi yoki kiritilmaydi. Misol uchun qonunchilikka muvofiq soliqdan ozod qilingan daromadlar, soliq tomonidan tan olinmaydigan xarajatlar (masalan, jazoga doir to'lovlar, ba'zi turdagi xayriya xarajatlari va hokazo). Vaqtinchalik farqlar bir muddatdan keyin yo'qoladi, ya'ni ular vaqtinchalik bo'lib, keyingi davrlarda soliq hisobida aks ettiriladi. Misol uchun asbob-uskunalarning amortizatsiyasi: moliyaviy hisobda 5 yilga yozilgan, lekin soliqda 3 yilga yozilgan bo'lishi mumkin shuningdek zaxiralar (rezervlar) ya'ni moliyaviy hisobda yaratilgan, lekin soliq hisobida tan olinmagan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq xarajatni e'tirof etish Soliq kodeksiga muvofiq xarajatni aniqlash va e'tirof etish tartibidan farq qilsa, mazkur xarajat soliq solish maqsadlarida Soliq kodeksda belgilangan tartibda hisobga olinadi. Binobarin foyda solig'ini hisoblashda soliq solinadigan bazani aniqlash uchun Soliq kodeksining 317-moddasida nazarda tutilgan holatlarni yaxshilab aniqlab olishimiz zarur. Quyida ushbu modda bo'yicha misollar yordamida soliq solish bazasiga oydinlik kiritamiz.

Soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonunchilikka muvofiq vakolatli organ tomonidan belgilangan moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan, ular mavjud bo'lmaganda esa, soliq to'lovchi

tomonidan belgilangan normalardan ortiqcha tovarlar yo'qolishi; Omborda saqlanayotgan tovarlar yoki materiallar tabiiy ravishda kamayadi (bug'lanish, singish, sochilish va h.k.). Qonunchilikda bunga me'yor (norma) belgilanadi. Agar yo'qotish shu normadan oshsa — bu xarajat soliq hisobida tan olinmaydi.

2) umumiy ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa tashkilotlarga joylarni tekin berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlarning qiymatini to'lash; Korxonaga o'ziga tegishli binodan joyni tekin (ijarasiz) beradi yoki u joy uchun kommunal to'lovlarni o'zi to'lasa — bu xarajat soliq hisobida tan olinmaydi.

3) soliq to'lovchining Soliq kodeksi [376-moddasida](#) nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari, bundan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarining 0,5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda o'z xodimlariga va ularning yaqin qarindoshlariga ommaviy-madaniy hamda konsert-tomoshalar tadbirlariga borishi uchun chiptalar xarid qilishga doir xarajatlar mustasno; Korxonaga xodimlariga konsert, kino yoki boshqa tadbirlarga chipta olib bersa — bu moddiy naf hisoblanadi. Ammo bunday xarajat realizatsiya daromadining 0,5% gacha bo'lgan qismi chegirmaga kiradi, ortig'i esa yo'q.

4) dala (safari) ta'minoti, xodimning shaxsiy avtotransportidan xizmat maqsadlarida foydalanganlik uchun qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha to'lovlar; Xodim komandirovkaga boradi, qonun bo'yicha 60 000 so'm kunlik norma, lekin korxonaga 100 000 so'm to'ladi. 60 ming — soliqda tan olinadi, 40 ming — **ortiqcha** bo'lgani uchun soliq bazasidan chiqariladi.

5) pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar; Korxonaga sobiq xodimlariga o'z hisobidan pensiya ustamasi to'lasa — bu ijtimoiy xarajat bo'lib, **soliqda tan olinmaydi** (davlat pensiya to'lovidan tashqari bo'lgani uchun).

6) Soliq kodeksi 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining [to'rtinchi](#) va [beshinchi xatboshilarida](#) ko'rsatilgan moddiy yordam; vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga ko'rsatiladigan; Xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetganligi bilan bog'liq holda ko'rsatiladigan; bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi munosabati bilan ko'rsatiladigan; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzida ko'rsatiladigan moddiy yordam;

7) xayriya yordamini amalga oshirish uchun xarajatlar, bundan metsenatlik ko'magini ko'rsatish, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga, yolg'iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga homiylik qilish, o'quv-tarbiya muassasalariga yoki yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga moddiy yordam ko'rsatish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, shuningdek Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga xayriya qilingan mablag'lar mustasno;

Faqat quyidagi hollar istisno bo'ladi: keksa, nogiron, yetim bolalarga yordam; ta'lim muassasalariga homiylik; "Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi"ga xayriya. Boshqa xayriya (masalan, sport jamoasiga, tadbirga, diniy tashkilotga) — **tan olinmaydi**.

8) qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha tarzda atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilar joylashtirganlik uchun kompensatsiya to'lovlari;

Agar korxonada chiqindi tashlash yoki havoni ifloslantirish uchun me'yordan ortiq to'lov qilsa — ortiqcha qismi tan olinmaydi. Masalan, ruxsat 1 mln, to'lov 1,5 mln bo'ldi — 0,5 mln tan olinmaydi.

9) loyihalar va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etishga doir xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalar qismlarga ajratish) xarajatlari hamda ushbu xarajatlarning o'rnini kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobidan qoplash imkoni bo'lmagan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

Qurilishda beton sifatsiz bo'lib chiqdi, ta'mirlash xarajati 20 mln. Agar bu zarar yetkazuvchidan undirilmasa — soliqa tan olinmaydi.

10) aybdorlari aniqlanmagan talon-toroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarning o'rnini qoplash imkoni bo'lmagan taqdirda ko'rilgan zararlar; Inventarizatsiyada 5 mln so'mlik mahsulot yo'q, lekin aybdor topilmadi.

Bu zarar **solliq hisobida tan olinmaydi** (faqat buxgalteriyada 94-hisobda aks etadi).

11) boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar;

Masalan, ijarachining o'rniga soliq to'lansa — bu xarajat sizning korxonangizga tegishli emas, soliq bazasidan chiqariladi.

12) soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'implar; Agar soliq inspeksiyasi sizga 10 mln so'm qo'shimcha QQS yoki foyda solig'i hisoblangan bo'lsa, bu **kelgusida chegirma bo'la olmaydi**.

13) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga (sog'liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirlarga) doir xarajatlari, bundan tadbirlarni o'tkazishga doir majburiyatlar qonunchilik bilan soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan hollar mustasno; Korxonada o'z faoliyatiga bevosita aloqasi bo'lmagan ijtimoiy, sport, dam olish tadbirlariga xarajat qilsa, bu foyda solig'ida chegirma bo'lmaydi. Misol: Korxonada xodimlari uchun dam olish oromgohiga 15 mln so'm sarfladi. Bu tadbir ishlab chiqarish bilan bog'liq emas, shuning uchun soliqa tan olinmaydi. Eslatma: Agar qonun bo'yicha tadbir o'tkazish majburiy bo'lsa (masalan, sanitariya haftaligi, majburiy sog'lomlashtirish) — bu holatda tan olinishi mumkin.

14) kasaba uyushmalari qo'mitalariga yordam ko'rsatish; Korxonada kasaba uyushmasi qo'mitasiga pul yoki boshqa yordam (masalan, avtomobil, jihoz) bersa — bu xayriya xarajati bo'lib, foyda solig'i hisobida chegirma qilinmaydi. Misol: Korxonada kasaba uyushmasiga 5 mln so'm o'tkazdi — bu xarajat 317-modda 14-bandiga ko'ra tan olinmaydi.

15) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko'rsatganlik uchun qilingan xarajatlar; Zavod mahalla hovlisini bezatish uchun 8 mln so'm sarfladi. Bu ishlab chiqarish bilan bog'liq emas, **tan olinmaydi**.

16) ushbu bo'limda nazarda tutilgan hollardan tashqari soliq solinmaydigan daromad olish bilan bog'liq xarajatlar; Agar korxonada daromadi soliqa ozod bo'lgan faoliyatdan tushsa

(masalan, davlat subsidiyasi, grant, lizing daromadi) — shu faoliyatga sarflangan xarajat soliq hisobida chegirma bo'lmaydi. Misol:

Korxonaga 50 mln so'mlik grant oldi va shu mablag' hisobidan jihoz sotib oldi. Grant daromad solinmaydi, shu sababli xarajat ham soliq bazasini kamaytirmaydi.

17) haqiqatda xizmatlar ko'rsatmasdan, tovarlarni jo'natmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha xarajatlari, agar bunday fakt sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan va unda ushbu xarajatlarni amalga oshirgan soliq to'lovchining nomi ko'rsatilgan bo'lsa;

Agar sud tomonidan aniqlansa, operatsiya (hisob-faktura, shartnoma) soxta bo'lgan bu xarajatlari tan olinmaydi. Misol: Korxonaga "A" MChJ bilan 100 mln so'mlik tovar olgandek rasmiylashtirgan, ammo tovar yetkazilmagan. Sud qarorida bu soxta deyilgan — 100 mln xarajat soliqda tan olinmaydi.

18) daromad olishga qaratilgan faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari, agar qonunchilikka muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa; Masalan, ixtiyoriy ravishda boshqa korxonaga binosini ta'mirlab berish yoki boshqa tashkilot uchun xizmat ko'rsatish. Misol: Korxonaga qo'shni maktab tomini ta'mirlab berdi — bu tadbirkorlik bilan bog'liq emas, soliqda tan olinmaydi.

19) budjet tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan (kiritilgan) penyalari, jarimalari va boshqa sanksiyalari; Bu — davlat tomonidan qo'llangan moliyaviy javobgarlik choralari (kechiktirilgan soliq, jarima, penya va h.k.). Ular soliqda xarajat sifatida tan olinmaydi. Misol: Korxonaga QQSni kechiktirib to'lagani uchun 3 mln so'm penya to'ladi — bu xarajat foyda solig'ida chegirma emas.

20) sotib olishga, ishlab chiqarishga, qurilishga, montaj qilishga, o'rnatishga doir va amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymatiga qo'shiladigan boshqa xarajatlari, shu jumladan qo'shimcha qurish, qo'shimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash hollarida amalga oshiriladigan, amortizatsiya chegirmalari vositasidagi xarajatlari jumlasiga kiritiladigan xarajatlari; Agar xarajat asosiy vosita (binolar, uskunalar) qiymatiga kiritilishi kerak bo'lsa, uni birdaniga xarajatga yozish mumkin emas. U amortizatsiya orqali asta-sekin xarajatga o'tadi. Misol: Korxonaga uskunani modernizatsiya qildi — 50 mln so'm. Bu xarajat amortizatsiya yo'li bilan tan olinadi, birdaniga xarajat sifatida tan olinmaydi.

21) soliq to'lovchining amortizatsiya qilinmaydigan mol-mulkning boshlang'ich qiymatiga Soliq kodeksining [306-moddasiga](#) muvofiq kiritiladigan xarajatlari; Masalan, yer uchastkasi qiymatini oshiruvchi xarajatlari (yerni tekislash, o'g'itlash va h.k.). Yer amortizatsiya qilinmaydi, shuning uchun bu xarajatlari ham soliqda chegirma sifatida olinmaydi.

22) Soliq kodeksida chegirmalar jumlasiga kiritish normalari belgilangan xarajatlarning mazkur normalar qo'llanilgan holda hisoblab chiqarilgan chegirmaning eng yuqori summasidan ortiq bo'lgan summa;

Agar Soliq kodeksida biror xarajat uchun limit belgilangan bo'lsa (masalan, reklama — 1%, vakillik — 0,3%), undan oshgan qismi tan olinmaydi. Misol: Korxonaga reklama uchun 20 mln so'm sarfladi, tushumi 1 mlrd so'm. Norma = 1% = 10 mln. 10 mln tan olinadi, 10 mln 317-modda 22-bandiga ko'ra chiqariladi.

23) shakllantirilishi ushbu bo'limda va (yoki) qonunchilik talablarida nazarda tutilmagan zaxiralarga, zaxira fondlari va boshqa fondlarga ajratmalar, bundan Soliq kodeksining [315](#), [316](#) va [326-moddalarida](#) nazarda tutilgan normalar doirasidagi xarajatlar mustasno;

Masalan, "Favqulodda xarajatlar uchun zaxira" yoki "Mukofot jamg'armasi"ni o'z ixtiyoringiz bilan tuzgan bo'lsangiz — bu ajratmalar soliqda tan olinmaydi.

24) soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan dividendlar summalari;

Dividend — foyda taqsimoti, xarajat emas.

Shuning uchun u foyda solig'i hisobida **chegirma sifatida olinmaydi**.

25) soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslarning foydasiga to'lanadigan ixtiyoriy sug'urta badallari; Korxonaga agar o'z xodimlari yoki uchinchi shaxslar foydasiga ixtiyoriy (majburiy emas) sug'urta to'lovlarini amalga oshirsa — bu xarajat soliq hisobida tan olinmaydi. Misol: Korxonaga xodimlarini ixtiyoriy tibbiy sug'urtaga qo'shdi va 20 mln so'm to'ladi. Bu xarajat chegirma sifatida olinmaydi, chunki majburiy sug'urta emas.

26) soliq to'lovchi tomonidan Soliq kodeksining [310-moddasiga](#) muvofiq soliq solish maqsadlarida xarajatlar deb e'tirof etiladigan xarajatlarning summasidan ortiqcha hisoblangan foizlar va ayrim chiqimlar; Agar korxonaga qarz yoki kredit bo'yicha bozor stavkasidan yuqori foiz to'lasa — ortiqcha qismi soliqda tan olinmaydi. Shuningdek, 310-moddaga ko'ra, xarajat sifatida e'tirof etiladigan foiz miqdoridan oshsa ham tan olinmaydi. Misol: Kredit bo'yicha ruxsat etilgan stavka 20%, ammo korxonaga 28% to'ladi. 8% ortiqcha foiz — soliq hisobida tan olinmaydi.

27) tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog'liq bo'lgan (shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kiritilgan) xarajatlar, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra mol-mulkni o'tkazish, shuningdek telekommunikatsiya tarmoqlaridagi tezkor-qidiruv tizimining texnik vositalarini o'tkazish va ulardan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish mustasno;

Agar korxonaga o'z mulkini tekin (ya'ni hech qanday haq olmasdan) boshqa shaxsga bersa — bu xarajat hisoblanmaydi.

Istisno: Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra berilgan mol-mulk; Tezkor-qidiruv tizimi uchun texnik vositalar.

Misol: Korxonaga sherik tashkilotga ofis mebelini tekin berdi.

Bu mebel qiymati (va QQS summasi) **chegirma sifatida olinmaydi**.

28) ishonchli boshqaruv muassisining ishonchli boshqaruv shartnomasini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari, agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko'ra muassis naf oluvchi bo'lmasa; Agar ishonchli boshqaruv shartnomasiga ko'ra muassis foyda oluvchi bo'lmasa, uning bu shartnoma bo'yicha qilgan xarajatlari soliqda tan olinmaydi. Misol: Korxonaga "A" MChJga aktivlarni ishonchli boshqaruvga berdi, ammo o'zi naf oluvchi emas. Shu sababli boshqaruv xarajatlari (masalan, audit, nazorat, xizmat haqi) chegirma bo'lmaydi.

29) notijorat tashkilotlariga va xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, yig'imlar va boshqa to'lovlar, bundan bunday badallarni, yig'imlarni va boshqa to'lovlarni to'lash qonunchilikda (shu jumladan chet davlatlarning qonunchiligida) nazarda tutilgan va (yoki) ushbu badallarni, yig'imlarni va boshqa to'lovlarni to'lagan soliq to'lovchilar tomonidan

faoliyatni amalga oshirishning sharti yoxud mazkur tashkilotlar tomonidan soliq to'lovchilar o'z faoliyatini yuritishi uchun zarur xizmatlar taqdim etishning sharti bo'lgan hollar mustasno; Bunday to'lovlar faqat shunday hollar bo'lgandagina tan olinadi: qonun bilan to'lash majburiy bo'lsa, yoki ushbu to'lovni amalga oshirish korxonada faoliyati uchun zarur bo'lsa (masalan, litsenziya olish sharti sifatida). **Misol:** Korxonada xalqaro assotsiatsiyaga a'zolik badali sifatida 5 mln so'm to'ladi. Agar bu a'zolik majburiy bo'lmasa — **chegirma sifatida olinmaydi.**

30) soliq to'lovchi tomonidan tashkil etilgan zaxira mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan xarajatlar, agar bunday zaxiralarni tashkil etishga doir xarajatlar Soliq kodeksida yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibda chegirmalar jumlasiga kiritilgan bo'lsa; Agar ilgari zaxira ajratmasi xarajat sifatida tan olingan bo'lsa, undan amalga oshirilgan xarajatlar yana bir bor soliqda tan olinmaydi. **Misol:** Korxonada ta'mirlash uchun 10 mln so'mlik zaxira yaratgan (bu soliqda tan olingan). Keyinchalik shu zaxiradan ta'mirlash amalga oshirilgan — bu xarajat ikki marta tan olinmaydi.

31) mol-mulk narxining pasayish (qadrsizlanish) summolari;

Mol-mulk bozor bahosi pasaygani uchun qayta baholash (revalvatsiya) natijasida hosil bo'lgan zararlar soliqda tan olinmaydi. **Misol:** Korxonada binosini qayta baholadi, natijada 30 mln so'mlik qadrsizlanish yuz berdi.

Bu buxgalteriyada qayd etiladi, lekin soliqda chegirma emas.

32) oddiy shirkat shartnomasi doirasida sheriklar (ishtirokchilar) tomonidan shartnoma sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkdagi ulushni qaytarish yoki bunday mol-mulkni bo'lish chog'ida ko'rilgan zararlar; Sheriklar umumiy mulkni bo'lish yoki ulushni qaytarish chog'ida ko'rgan zarar — soliqda tan olinmaydi. **Misol:** Ikki korxonada umumiy loyiha yuritdi, keyin bo'lishda biri 5 mln zarar ko'rdi.

33) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi ishtirokchisi tomonidan ushbu guruhning mas'ul ishtirokchisiga soliqni (bo'nak to'lovlari, joriy to'lovlarni, penyalarni, jarimalarni) Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi uchun belgilangan tartibda to'lash uchun berilgan pul mablag'lari, shuningdek soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi tomonidan shu guruhning ishtirokchisiga ushbu soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq (bo'nak to'lovlari, joriy to'lovlar, penyalar, jarimalar) summasi aniqlashtirilishi munosabati bilan berilgan pul mablag'lari; Bir guruhdagi (holdingdagi) korxonalar o'zaro soliq, penya yoki jarima to'lash uchun mablag' o'tkazsalar — bu xarajat sifatida tan olinmaydi. **Misol:** "Xolding A" tarkibidagi "Filial B" guruh bosh kompaniyasiga soliq to'lash uchun 100 mln so'm berdi.

34) tovar-moddiy qimmatliklarni yaroqsizligi sababli (saqlash muddati o'tganligi, jismoniy va (yoki) ma'naviy eskirganligi, shunga o'xshash boshqa sabablarga ko'ra) hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar, bundan favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va hokazolar) oqibatida ko'rilgan zararlar mustasno; Agar tovarlar muddati o'tgan, eskirgan yoki tuzilgan bo'lsa — bu zarar soliqda tan olinmaydi. Faqat favqulodda holatlar (yong'in, tabiiy ofat, avariya) natijasidagi zararlar tan olinadi. **Misol:** Ombordagi 2 mln so'mlik mahsulot saqlash muddati o'tgan — bu zarar soliqda tan olinmaydi.

35) muddati o'tgan va kechiktirilgan kreditlar (qarzlilar) bo'yicha muddatli qarz uchun kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalaridan ortiqcha foizlar; Agar kredit kechiktirilgan bo'lsa va bank qo'shimcha (penya) foiz yozgan bo'lsa — bu ortiqcha foizlar

soliqda chegirma bo'lmaydi. Misol: Kredit muddati o'tib ketdi, bank 10 mln so'm penya hisoblab chiqdi. Bu penya foyda solig'ida tan olinmaydi.

36) xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penyalar va sanksiyalarning boshqa turlari.

Korxonaga xo'jalik shartnomasini bajarmagan yoki kechiktirgan bo'lsa, to'langan jarima va penyalar — bu xarajat foyda solig'i bazasidan chiqariladi. Misol: Korxonaga yetkazib berish muddatini buzib, 3 mln so'm penya to'ladi.

1-jadval. Chegirma sifatida tan olinmaydigan xarajatlarning (buxgalteriya misollari bilan)

No	Mazmuni (soddalashtirilgan)	Buxgalteriya amaliyoti misoli	Soliq natijasi
1	Tabiiy kamayish normasidan ortiqcha yo'qotish	Omborda 150 litr benzin yo'qoldi, norma 100 l. 50 litr ortiqcha.	Tan olinmaydi
2	Joylarni tekin berish, kommunal to'lovlarni o'z hisobidan to'lash	Ofis joyi tekin berildi, elektr to'lovi korxonaga hisobidan	Tan olinmaydi
3	Xodimlarga moddiy naf (0,5% dan ortiq chiptalar, sovg'alar)	2 mlrd so'm daromadga 15 mln chipta xarajati (10 mln limit)	Ortiqcha 5 mln tan olinmaydi
4	Safar ta'minoti, transport uchun normadan ortiq to'lov	Kunlik norma 60 ming, to'langan 100 ming	40 ming tan olinmaydi
5	Pensiyalarga ustama, qo'shimcha to'lovlar	Sobiq xodimlarga 2 mln qo'shimcha pensiya to'lovi	Tan olinmaydi
6	377-modda 10-bandiga kirmaydigan moddiy yordam	Xodimga kasalligi uchun 3 mln so'm yordam	Tan olinmaydi
7	Xayriya, homiylik (faqat ayrim istisnolar tan olinadi)	Sport klubiga 10 mln so'm homiylik	Tan olinmaydi
8	Atrof-muhitni ifloslantirish uchun ortiqcha to'lov	Limit 1 mln, to'lov 1,5 mln	0,5 mln tan olinmaydi
9	Qurilishdagi kamchiliklar xarajatlari (javobgar topilmasa)	Beton sifatsiz, 20 mln ta'mirlash xarajati	Tan olinmaydi
10	Aybdori topilmagan kamomad, o'g'irlik	5 mln so'mlik mahsulot yo'qoldi, aybdor yo'q	Tan olinmaydi
11	Boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar	Ijarachining o'rniga yer solig'i to'landi	Tan olinmaydi
12	Soliq tekshiruvlarida qo'shimcha hisoblangan soliqlar	QQS bo'yicha 10 mln so'm qayta hisoblandi	Tan olinmaydi
13	Faoliyatga aloqasiz sog'liq, sport, dam olish tadbirlari	Xodimlar uchun oromgohga 15 mln to'lov	Tan olinmaydi

No	Mazmuni (soddalashtirilgan)	Buxgalteriya amaliyoti misoli	Soliq natijasi
14	Kasaba uyushmasiga yordam	Kasaba uyushmasiga 5 mln pul o'tkazildi	Tan olinmaydi
15	Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar	Mahalla hovlisini bezash xarajati	Tan olinmaydi
16	Soliqdan ozod daromadlar bilan bog'liq xarajatlar	Grant hisobidan jihoz xaridi	Tan olinmaydi
17	Soxta (haqiqatda bajarilmagan) operatsiyalar	Sud soxta shartnoma deb topgan 100 mln	Tan olinmaydi
18	Majburiy bo'lmagan, daromadga aloqasiz xarajatlar	Qo'shni tashkilot binosini ta'mirlash	Tan olinmaydi
19	Jarima, penya va sanksiyalar (byudjet foydasiga)	Soliqni kech to'lab, 3 mln penya to'ladi	Tan olinmaydi
20	Asosiy vositalar qiymatiga kiritiladigan xarajatlar	Uskuna modernizatsiyasi 50 mln	Birdaniga emas, amortizatsiya orqali
21	Amortizatsiya qilinmaydigan aktivlarga xarajatlar	Yer uchastkasini tekislash 8 mln	Tan olinmaydi
22	Normadan ortiqcha xarajatlar (reklama, vakillik va h.k.)	Reklama 20 mln, limit 10 mln	10 mln tan olinmaydi
23	Qonunda ko'zda tutilmagan zaxira va fondlar	"Favqulodda xarajatlar jamg'armasi"	Tan olinmaydi
24	Hisoblangan dividendlar	Ta'sischilarga 100 mln dividend to'lovi	Tan olinmaydi
25	Boshqa shaxslar foydasiga ixtiyoriy sug'urta	Xodimlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta	Tan olinmaydi
26	Ortiqcha hisoblangan foizlar	Kredit 20% o'rniga 28% to'landi	8% qismi tan olinmaydi
27	Tekin berilgan mol-mulk va xizmatlar	Mebelni tekin topshirish	Tan olinmaydi
28	Ishonchli boshqaruvdagi muassis xarajatlari	Naf oluvchi bo'lmagan muassis xarajatlari	Tan olinmaydi
29	Notijorat yoki xalqaro tashkilotlarga badallar	Ixtiyoriy a'zolik uchun 5 mln badal	Tan olinmaydi
30	Oldin chegirmaga kiritilgan zaxiradan foydalanish	Ta'mirlash zaxirasidan sarflangan summa	Tan olinmaydi (ikki marta bo'lmaydi)
31	Mol-mulk qadrsizlanish summasi	Binoning bahosi pasaydi 30 mln	Tan olinmaydi
32	Oddiy shirkatdagi ulush	Sherik ulushi	Tan olinmaydi

No	Mazmuni (soddalashtirilgan)	Buxgalteriya amaliyoti misoli	Soliq natijasi
	bo'lishidagi zarar	bo'lishda 5 mln zarar	
33	Konsolidatsiyalashgan guruhdagi soliq to'lovlar	Filial bosh korxonaga soliq uchun pul berdi	Tan olinmaydi
34	Eskirgan, yaroqsiz tovarlar zarari	Muddati o'tgan mahsulot 2 mln	Tan olinmaydi (faqat ofat holatida tan olinadi)
35	Kechiktirilgan kreditlar bo'yicha ortiqcha foizlar	Bank penya 10 mln	Tan olinmaydi
36	Shartnomani buzganlik uchun jarima, penya	Yetkazib berish kechikdi — 3 mln jarima	Tan olinmaydi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 317-moddasi soliq to'lovchilar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, unda **soliqdan tushunilmagan yoki chegirma sifatida tan olinmaydigan xarajatlar** aniq ko'rsatilgan. Bunda asosiy tamoyil shundan iboratki, har qanday xarajat faqatgina **tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lsa**, va qonuniy asoslarda amalga oshirilsa soliq hisobida chegirma sifatida hisobga olinadi.

Moddada keltirilgan 36 ta band amaliyotda uchraydigan holatlarning keng doirasini qamrab oladi: bu omborlarda yo'qolgan tovarlar, xodimlarga qilingan ortiqcha nafaqalar, xayriya va homiylik, tabiiy ofatlar va favqulodda holatlar, soxta shartnomalar, konsolidatsiyalashgan guruhdagi soliq to'lovlar, va boshqa ko'plab holatlar. Har bir band **soliq nazoratini kuchaytirish va byudjet mablag'larini asrashga** qaratilgan bo'lib, korxonalarda bu xarajatlar amalga oshirilganda alohida e'tiborga olinishi zarur..

References, Литературы, Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 3-martda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 31-martda ma'qullangan.
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" . O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug'iga 1-ilova.
4. <https://lex.uz/docs/-7282737>
5. <https://lex.uz/docs/-4674902>
6. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

7. https://nrm.uz/contentf?doc=478427_2_rashody_predpriyatiya&products=3_praktiches kaya_buhgalteriya.



INNOVATIVE
ACADEMY